

2019 yil yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **6385,9 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **114,4 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning hajmi **4100,1 mlrd.so'mni** o'sish sur'ati **113,5 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **64,2 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **76,6 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6385,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 114,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi indeksi 116,4 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 96,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 86,3 % ga o'sishi hisoblanadi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %

2018 yil
yanvar-sentabr



2019 yil
yanvar-sentabr



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Ishlab chiqaradigan sanoat



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 40,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6101,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,6 % ni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	2019 yil	2018 yil	2018 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalanmagan), ming tonna	9,2	9,3	98,9
Paxta linti, ming tonna	1,5	2,0	75,0
Aroq – ming litr 100 % spirt	316,0	901,2	35,1
Vino, ming litr	947,0	1042,0	90,9
Un, ming tonna	87,5	82,8	105,7
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	7,7	7,3	105,5



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 191,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,0 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 52,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 4100,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 113,5 % ga o'sgan, jami sanoatdagi ulushi esa 64,2 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilning yanvar-sentabr oyida iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 29,3 % bo'lib, 2019 yilning yanvar-sentabr oyida 32,5 % ga yetgan.

**Yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi,
%da**



2018 yilning yanvar-sentabr oyida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 70,7 % bo'lib, 2019 yilning yanvar-sentabr oyida 67,5 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamaygani kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

	Mrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar- sentabrga nisbatan o'sish, % da
Viloyat jami	4100,1	100,0	113,5
Namangan shahar	1966,2	48,0	114,1
Mingbuloq	34,0	0,80	102,2
Kosonsoy	171,9	4,2	115,4
Namangan t	430,7	10,5	111,3
Norin	82,8	2,0	113,7
Pop	97,4	2,4	101,5
To'raqo'rg'on	343,3	8,4	114,9
Uychi	269,6	6,6	112,5
Uchqo'rg'on	353,4	8,6	111,6
Chortoq	79,2	1,9	111,9
Chust	210,1	5,1	125,1
Yangiqo'rg'on	61,3	1,5	105,0


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1932,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 30,3% ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi,% da.

2018 yil yanvar-sentabr




2019 yil yanvar-sentabr



- Viloyatning boshqa korxonalari
- Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 100,0 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,% da.




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

	2019 yil yanvar-sentabr, mlrd.so'm	2018 yil yanvar-sentabrga nisbatan, %
Viloyat jami	6385,9	114,4
Namangan shahar	2656,2	110,7
Mingbuloq	110,1	102,6
Kosonsoy	225,7	106,4
Namangan t	666,3	110,5
Norin	117,8	106,2
Pop	265,7	117,8
To'raqo'rg'on	546,7	127,1
Uychi	404,2	108,8
Uchqo'rg'on	997,2	124,9
Chortoq	84,6	104,6
Chust	216,6	109,6
Yangiqo'rg'on	94,8	105,2

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 41,6 % ulushini), Uchqo'rg'on (15,6 %), Namangan (10,4 %), To'raqo'rg'on (8,6 %), Uychi tumani (6,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Chortoq (1,3 %), Yangiqo'rg'on (1,5 %), Mingbuloq (1,7 %), Norin (1,8 %) va Chust (3,4 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar bo'yicha sanoat va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ulushi, % da.



■ Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi, % da ■ Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ulushi, % da


Shuningdek, iste'mol mollari hajmining eng katta qismi Namangan shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 48,0 %), Namangan (10,5 %), Uchqo'rg'on (8,6 %) hamda To'raqo'rg'on (8,4 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida To'raqo'rg'on, Pop va Uchqo'rg'on tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Uchqo'rg'on (5886,8 ming so'm), Namangan shahrida (4302,2 ming so'm), Namangan tumanida (3783,7 ming so'm), va To'raqo'rg'on (2458,0 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2301,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 1477,9 ming so'm bo'lgani hol da Namangan shahrida 3185,0 ming so'mni, Namangan tumanida 2445,6 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 2086,4 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 1543,6 ming so'mni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat ishlab chiqarish va iste'mol tovarlari hajmlari




2019-yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol tovarlarining o'sishi, 2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan % da.

Sanoat ishlab chiqarish



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 4889,3 mlrd.so'mni va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 76,6 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (100,0 %), Uychi (90,8 %) va Namangan (88,9%) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (30,9 %), Pop (48,9 %) va Chust (58,6 %) tumanlarida kuzatildi.


2019 yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 5360 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2309 tasi Namangan shahrida, 394 tasi Uychi, 391 tasi Chust, 375 tasi Namangan, 345 tasi Kosonsoy, 334 tasi To'raqo'rg'on, 237 tasi Uchqo'rg'on, 224 tasi Norin, 218 tasi Yangiqo'rg'on, 211 tasi Chortoq, 205 tasi Pop va 117 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

**2019 yil 1 oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni
(birlikda)**



2019 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 1231 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 54,8 % Namangan shahri, Kosonsoy, Uchqo'rg'on va Uychi tumanlariga to'g'ri keladi.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni (birlikda)



2019 yilning yanvar-sentabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida 149,2 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o'sishi buyicha chora– tadbirlarning amalga oshirilishi, korhonalarning ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarish.

Mahalliyashtirish dasturi	2019 yil yanvar-sentabr oylarida	2018 yil yanvar-sentabr oylarida
Loyihalar soni, birlik	20	38
Korxonalar soni, birlik	10	19
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm	149,2	142,3
Export qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSH dollari	520,0	93,42
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	85	74

**Namangan viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(71) 230-84-80